ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

№7
2025

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 418 sahifa,
1-iyul, 2025-yil.



**BOSH MUHARRIR:**
**Umarova H. O'.** – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
**Karimova E'zoza Gapirjanovna** – Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

*TAHRIRIYAT KENGASHI A`ZOLARI*
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)***
***Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
*Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent*
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
***G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Doniyorov S. M. –"Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***



Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Umarova H. O‘. –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne’matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
**Karimova E’zoza Gapirzhanovna** – Rector of the Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G‘. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
*Qirg‘izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma’murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O‘zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
**Mizayeva F. O.** – **Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA SОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# MUNDARIJA

Konvergent tahririyat mas'uliyati: Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonini yoritish tendensiyalari ........ 16
Doniyorov Salim Musurmonovich

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy bilimlarini shakllantirish ........ 23
Nazarov Odil Omanqulovich

"Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"da ijtimoiy-pedagogik hamkorlikning o'rni ........ 27
Abirova Umida Nazarovna

Maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarini oldini olish va uning ahamiyati ........ 30
Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li

Pedagogik jarayonda axloqiy qarashlarni shakllantirish usul va vositalari ........ 34
Xudoykulova Shaxlo Mamaniyozovna

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining ijodkorligini rivojlantirishda ta'limiy o'yinlarning ahamiyati ........ 38
Salimova Dilmira Farxodovna

Aholining iqtisodiy axborot savodxonligini oshirishdagi muammo va kamchiliklar ........ 41
Rajabov Asliddin Xolmirzayevich

Favqulodda vaziyatlar yo'nalishi ta'limida muloqotning ahamiyati ........ 44
Boltayev Baxtiyor Yunusovich

Biologiya ta'limi va raqamli texnologiyalar ........ 48
E. Po'latova

Boshlang'ich ta'limga tayyorlov guruhi bolalarini kasbga yo'naltirishda stem yondashuvining ahamiyati ... 51
Egamova Ravshanoy Surobjonovna

O'zbekiston TIMSS natijalarini qanday yaxshilashi mumkin? Innovatsion ta'lim yondashuvlari va samarali strategiyalar ........ 55
G'aynididinov Shayxislom Tolibjon o'g'li

Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda mutaxassislar hamkorligi ........ 60
Isayeva Mushtariy Alisher qizi

Developing Student's Critical Skills Through Technology-Enhanced English Lessons ........ 63
Mavlonova Dildora Shuxrat qizi

Bahrom Ro'zimuhammad she'rlarini o'qitishda integratsiya usulidan foydalanish ........ 67
Nomozova Dilobar Suyun qizi

Aksiologik yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini shakllantirish: bosqichlar va tamoyillar ........ 72
Norboyeva Moxigul Shavkat qizi

3D Modeling of Virtual Chemical Laboratories ........ 75
Qayumov Jamshid Ma'rufjon o'g'li

Fostering Metacognitive Skills in Efl Learners Through Ai-Supported Instruction: a Review of Recent Literature ........ 80
Ruzieva Maftuna

Onlayn va gibrid ta'lim sharoitida mashinasozlik texnologiyasi faniga qiziqishni oshirishning nazariy asoslari ........ 85
Sarimsakova Soxibaxon Raxmonjanovna

Loyihalashtirilgan integral darslar samaradorligi (9-sinflar uchun "Metallar va ularning umumiy xususiyatlari" mavzusida) ........ 88
Sharipova Hakima Shavkatovna

Metacognition and Self-Regulated Learning ........ 92
Turayeva Nazira Ibragimovna

Методические возможности совершенствования обучения научной письменной речи на основе коммуникативно-деятельностного подхода ........ 95
Меденцева Наталья Петровна

Transformatsion jarayonlarda tibbiyot oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari ........ 100
Jonibekov Jasur Jonibekovich

O'zbek milliy musiqasi: boy madaniyat va san'atning ajralmas qismi....................105
Rustamova Maxsuma Farxodbek qizi

Sharq va G'arbda tibbiyot fanlarining yaratilishi tarixi....................108
Bakayev Najmiddin

Didaktik o'yinlar bola faoliyatining asosiy vositasi sifatida....................112
Egamova Madina Qobil qizi

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarining konvergent-kreativ tafakkurini takomillashtirishning didaktik asoslari....................116
Egamova Shukriya Amanovna

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida universal ta'lim faoliyatlari orqali tarbiyaviy maqsadlarga erishish imkoniyatlari....................119
G'aybullayeva Nafisaxon Nosirjon qizi

Matematika o'qitishning klassik metodlaridan zamonaviy usullariga o'tish....................124
G'ofurov Jamoliddin Xusniddinovich

Jahon miqyosida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari....................128
Hoshimova Dilnoza Boymirzoyevna, Mahmudova Zulfiya Homidovna

Bo'lajak o'qituvchilarning prognostik kompetensiyasini rivojlantirish tamoyillari....................131
Ikromova Munisa Sheraliyevna

Bo'lajak muhandislarni kasbiy tayyorgarligini grafik ma'lumotlar asosida oshirishning didaktik asoslari....................134
Jumanazarova Zuhra Qosimjonovna

Sport va jismoniy tarbiya pedagogikasida innovatsion metodlar....................138
Jumanova Iroda Shokirjon qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish....................141
Jumayeva Sarvinoz Ilhombekovna

Talabalarda nutqiy tarkibiy tuzilmalarni shakllantirish texnologiyasi....................145
Kiyamova Maxbuba Sultanovna

Innovatsion yondoshuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning amaliy jihatlari....................148
Mamadiyorov Jamol

Ingliz tili matnlarini o'rganishda 6-sinf o'quvchilarining grammatik kompetensiyasini oshirish va tatbiq qilishning samarali usullari....................152
Sharipova Firuza Mehriddinovna

Kar va zaif eshituvchi yuqori sinf o'quvchilarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish modeli....................155
Tursunov Hojiakbar Hamidullo o'g'li

Maktabgacha ta'limda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – pedagogik muammo sifatida....................159
Xallokova Maksudaxon Ergashevna

Altruistik xulq-atvorning shaxsiy va ijtimoiy determinantlari....................162
Xatamova Ferangiz Ibodulloyevna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik mahoratini teatr pedagogikasi vositalari orqali rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi....................166
Xudoyberganova Matluba Qulsoxatovna

Refleksiv yondashuvning ta'lim jarayonidagi o'rni va afzalliklari....................170
Yodgorova Gulrux Farhodovna

Совершенствование методики формирования компетентности будущих студентов-искусствоведов в условиях цифрового образования....................174
Юлдашев Эргаш Сабирович

O'z-o'zini rivojlantirish tushunchasi va uning pedagogik mohiyati....................177
Kudenov Temurbek Maxsetbaevich

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida hikoya janrini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish dolzarb muammo sifatida....................180
Ergasheva Shoxida Nurmuxammadovna

Ingliz tili darslarini interaktiv tashkil etishda raqamli ta'lim vositalarining o'rni va metodik yondashuvlar....................185
Raxmatullayeva Barno Baxtiyor qizi

The Effectiveness of Using Podcasts to Enhance Listening Comprehension and Vocabulary Acquisition in Secondary School English Classes....................189
Meliboyev Zuxriddin Isroil ugli

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

O‘zbekiston tarixi darslarida pedagogik improvizatsiyani texnologiyalashtirish va raqamlashtirish imkoniyatlari ....... 192
Ergasheva Muhayyoxon G‘anijonovna

Tasviriy faoliyat vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning samaradorligi ....... 196
Arslanova Umidaxon Komiljon qizi

Baxtli pedagoglar sirlari yoki kasbdagi subyektiv farovonlik ....... 201
Adilova Zulfiya Djavdatovna

Ayollarning siyosiy faolligini oshirishda gender kvotalarining o‘rni ....... 204
Abdukaxorova O‘g‘iloy Isroiljon qizi

The Content of Developing Students’ Communicative Culture Through a Bilingual Approach ....... 207
Abdukhalilova Feruzakhon Ulugbek kizi

Maktabgacha yoshdagi nutqida kamchiligi bo‘lgan bolalar so‘zlashuv nutqini shakllantirishda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish ahamiyati ....... 210
Abdullayeva Ugiloy Djurayevna

Chet tili intellektual va kasbiy rivojlanish kaliti ....... 214
Aripova Sayida Abdulaxatovna

Raqamli etiket: zamonaviy ta’limda yangi madaniyat talabi ....... 217
Rasuljon Atamuratov

Raqamli xiyonat: zamonaviy munosabatlar va sodiqlik inqirozi ....... 221
Azizova Shodiya Utkur qizi

Badiiy tarjimada leksik birliklarning lingvomadaniy aspektlari ....... 224
Mardiyeva Maxbuba Shavkatovna

O‘quvchilarda funksional savodxonlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan dasturiy platformani pedagogik loyihalash ....... 228
Obloqulov Sulaymon Maxmayusuf o‘g‘li

Kurashchilar orasida jarohatlarning oldini olish: reabilitatsiya va profilaktik uslublar ....... 232
Ochilova Sarvinoz Salim qizi

Xalq og‘zaki ijodi vositasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini rivojlantirishga tayyorlashning pedagogik-psixologik jihatlari ....... 236
Oxunova Nozimaxon Mirzag‘ulom qizi

Loyiha asosidagi o‘qitish orqali yoshlarda liderlik qobiliyatini rivojlantirish usullari ....... 239
Risvayeva Charos Zaydilla qizi

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o‘yinlar vositasida o‘rgatishga qaratilgan mashq va topshiriqlarning samaradorligi ....... 242
Toshniyozova Dildora, Meliyeva Nargizaxon

Bo‘lajak o‘qituvchilarni tarixiy va ma’naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirish modeli ....... 245
Tursunova Dilnoza Adhamjon qizi

Shaxs rivojlanishida pedagogika va psixologiyaning o‘rni ....... 248
Umirova Guldona Jamoliddin qizi

Toshkent shahri havosi ifloslanishining sabablari va oldini olish choralari ....... 251
Ungalov Akmal Navruzovich

Sun’iy intellekt asosida tuzilgan interaktiv platformalar va ulardan foydalanuvchi tajribasi ....... 254
Xabirova Zulfiya Anvarbekovna

Talabalar ijtimoiy faollik indeksini rivojlantirishda tyutorlik faoliyatining o‘rni va ahamiyati ....... 257
Xamrakulov Jasurbek Muxammadjon o‘g‘li

Hozirgi davr pedagogikasida sharqona ta’limning ahamiyati ....... 260
Yuldasheva Mastura Islamovna

Пословицы и поговорки как отражение картины мира ....... 263
Алламбергенова Шахноза Садатдиновна

Raqamlashtirish sharoitida talabalarning mustaqil ta’lim olish kompetensiyasini rivojlantirishda mustaqil ta’limning o‘rni ....... 268
Abdumannopov Muhammadsohib Muhammadyusuf o‘g‘li

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy-kreativ kompetensiyalarini rivojlantrishning o‘ziga xos xususiyatlar ....... 272
Khadicha Mukhamadiyeva Karomatovna

Zamonaviy didaktik yondashuv asosida boʻlajak oʻqituvchilarning analitik va ijodiy koʻnikmalarini rivojlantirish....277
Moʻminova Gulhayo Turgʻunboy qizi

Kompetensiyaviy yondashuv asosida boʻlajak oʻqituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari....280
Oʻrinova Nilufar Muhammadovna

Aholi oʻrtasida yoshlarning pedagogik intervensiyalar orqali ilmiy faolligini oshirish va sogʻlom turmush tarzini shakllantirish metodikasi....286
Raximov Xasanboy Kamoliddin oʻgʻli

Buyuk ipak yoʻli – yangi geosiyosiy va iqtisodiy aloqalarning tarixiy asosi sifatida....290
Tugalova Madina Erkin qizi

Ilk maktabgacha yoshdagi bolalarda sensor tarbiya....293
Umarova Muyassarxon A'zamjonovna

Rus tilida oʻqish koʻnikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari....297
Xanova Dilrabo

Didactic Possibilities of Teaching English in Primary Schools Based on 3D Interactive Technologies....303
Kholiqova Lutfiya Umurzoqovna

Raqamli dasturiy vositalari asosida organik kimyo fanini oʻqitish jarayonlarini loyihalashtirish modeli....306
Ametova Guljamilya Elbrusovna

Talabalarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning amaliy asoslarini takomillashtirish....310
Baydjanov Bekzod Xaitboyevich

Aksiologik yondashuv asosida oʻquv mashgʻulotlarini tashkil etishning til oʻrganish jarayonidagi ahamiyati....314
Choriyeva Feruza Amrullayevna

Ibrayim Yusupovning "Saksovul" she'rini oʻqitish metodikasi....317
Darmenov Allayar Abdilxaq uli

Innovatsion ta'lim sharoitida talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi....320
Ergasheva Anbar Shaymardan qizi

Oiladagi zoʻravonlik: sabablari, oqibatlari va psixologik yondashuvlar....324
Joʻrayeva Kaniza Akbarali qizi

Darsda talabalar nutqiy qobiliyatini shakllantirish masalalari....329
Kamoliddinova Maftuna Xusniddin qizi

Nodavlat ta'lim tashkilotlari oʻquvchilarida kreativlikni shakllantirishni boshqarish....334
Nasriddinov Xasan Baxtiyor oʻgʻli

Nutq nuqsoniga ega bolalarni maktabga tayyorlashda psixologik aspektlar va pedagogik yondashuvlar....339
Normatova Maftuna Kengash qizi, Kamolova Gulshoda Jobir qizi

Talabalarni ma'naviy tarbiyalash diagnostikasining psixologik va pedagogik manbalardagi talqini....346
Saotmuratova Zebo Yuldash qizi

OTM talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlari....350
Tokumbetova Mexribonu Shavkat qizi

Ma'naviy yetuklik sari: jadid adabiyotining oʻrni....356
Abdullayev Roʻzimuxammad Akramjon oʻgʻli

Nemis tilida derivatsion leksik birliklarning oʻqitishning lingvodidaktik asoslari....361
Abduraxmanov Sirojiddin Muminkulovich

Boʻlajak oʻqituvchilarda baholash madaniyatini shakllantirish: adolatli, obyektiv va motivatsiyalovchi baholashga tayyorlash....365
Boymirzayev Farxodjon Raxmatjon oʻgʻli

Maktab ta'limida koʻpaytirishning qulay usullari....371
Ergasheva Shahlo Shoabdullo qizi

Sensor integratsiya buzilishlari bolaning nutq, harakat va hissiy rivojlanishiga ta'siri....375
Isayeva Mushtariy Alisher qizi

Inson jamiyatdagi ish faoliyatida va psixologiyasida sportning oʻrni....378
Isoqov Nuriddin Halim oʻgʻli

Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarini integrativ oʻqitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish....382
Joʻrayeva Nargiza Jamolidinovna

Обучение дошкольников иностранному языку в различных видах неречевой деятельности....386
Марасулова Доно Нигматуллаевна

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Til oʻrgatishda matnning didaktik va kommunikativ ahamiyati ........ 389
Ungarbayeva Ayman Davletbayevna

Munavvarqori Abdurashidxonov – jadidchilik harakatining maʼrifatparvar yoʻlboshchisi ........ 393
Xasanboyeva Ruxshona Nurmatjon qizi

Dars jarayonida oʻquvchilarning tanqidiy fikrlashini shakllantirish ........ 396
Yulchiyeva Shoxsanam

Особенности использования современных педагогических технологий в преподавании естественных наук в общеобразовательной школе ........ 399
Мажидова Мадина Фархадовна, Мажидов Шерзод Фархадович

Повышение информационной грамотности и формирование информационной культуры студентов в среде дистанционного обучения ........ 403
Р. К. Ауезова

Воздействие медиа в контексте социального формирования личности ........ 407
Хайдарова Гулинур Нурбек кизи

Теоретические основы развития интеллектуальных способностей студентов ........ 411
Чинкулова Гулмехра Бахроновна

# BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA BAHOLASH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH: ADOLATLI, OBYEKTIV VA MOTIVATSIYALOVCHI BAHOLASHGA TAYYORLASH



Boymirzayev Farxodjon Raxmatjon o'g'li
Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti o'qituvchisi
**ORCID: 0009-0004-2309-3796**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarni baholash madaniyatiga tayyorlash masalasi yoritilgan bo'lib, asosiy e'tibor adolatli, obyektiv va motivatsiyalovchi baholash yondashuvlarini shakllantirishga qaratilgan. Tadqiqot davomida pedagogik kvalimetriya doirasida mezonli baholash, o'zaro baholash, konstruktiv fikr bildirish va reflektiv tahlilga asoslangan metodik yondashuvlar ishlab chiqildi.

**Kalit so'zlar:** baholash madaniyati, adolatli baholash, obyektivlik, motivatsiyalovchi baholash, pedagogik kvalimetriya, mezonli baholash.

**Abstract:** This article addresses the issue of developing an assessment culture among future teachers, with a particular focus on promoting fair, objective, and motivational approaches to student evaluation. Within the framework of pedagogical qualimetry, the study proposes methodological approaches based on criterion-referenced assessment, peer evaluation, constructive feedback, and reflective analysis.

**Key words:** assessment culture, fair assessment, objectivity, motivational assessment, pedagogical qualimetry, criterion-referenced assessment.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается проблема формирования культуры оценивания у будущих учителей, с акцентом на развитие справедливых, объективных и мотивирующих подходов к оценке. В рамках педагогической квалиметрии разработаны методические подходы, основанные на критериальном оценивании, взаимной оценке, конструктивной обратной связи и рефлексивном анализе.

**Ключевые слова:** культура оценивания, справедливая оценка, объективность, мотивационная оценка, педагогическая квалиметрия, критериальное оценивание.

## KIRISH

Zamonaviy pedagogik nazariya va amaliyotda ta'lim sifatining muhim mezonlaridan biri sifatida o'quvchilarning o'quv yutuqlarini baholashga yo'naltirilgan yondashuvlar keng ko'lamda o'rganilmoqda. Baholash jarayoni nafaqat o'quv natijalarini aniqlash, balki o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini oshirish, ularda o'z-o'zini rivojlantirishga intilish, tanqidiy fikrlash va o'z-o'zini baholash kabi kompetensiyalarni shakllantirishga ham xizmat qilishi lozim.

Shu sababli zamonaviy o'qituvchidan faqat baholash uslublarini bilish emas, balki baholashga madaniyatli, adolatli va obyektiv yondashish, shuningdek, o'quvchilarning psixologik holati hamda o'qishga bo'lgan munosabatini inobatga olish talab etiladi. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak o'qituvchilarda adolatli, obyektiv va motivatsiyalovchi baholashga yo'naltirilgan baholash madaniyatini shakllantirishning nazariy asoslarini aniqlash va amaliy yo'llarini ishlab chiqish maqsadida quyidagi vazifalar belgilandi:

- baholash madaniyatining mazmuni, tarkibi va asosiy mezonlarini nazariy jihatdan tahlil qilish;
- baholashga adolatli va obyektiv yondashuvning o'quvchilarga ta'sirini aniqlash bo'yicha ilg'or xorijiy hamda mahalliy tajribalarni o'rganish;
- bo'lajak o'qituvchilarda motivatsiyalovchi baholash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash;
- baholash madaniyatini shakllantirishga doir amaliy mashg'ulotlar, treninglar va metodik yondashuvlarni ishlab chiqish va ularning samaradorligini tajriba asosida baholash.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda bo‘lajak o‘qituvchilarda baholash madaniyatini shakllantirishga qaratilgan eksperimental-interventsiya usuli qo‘llanildi. Tadqiqot pretest-posttest dizayn asosida tashkil etilib, unda eksperimental va nazorat guruhlari ishtirok etdi. Eksperimental guruh talabalari bilan maxsus ishlab chiqilgan pedagogik treninglar o‘tkazildi. Ushbu treninglar adolatli, ob’yektiv va motivatsiyalovchi baholashning asosiy tamoyillari, baholash mezonlari, konstruktiv fikr bildirish, o‘zaro baholash va o‘zini baholash usullarini o‘z ichiga oldi.

Metodologiyada diagnostik vositalar (so‘rovnoma, case-study, intervyu) orqali boshlang‘ich daraja aniqlanib, so‘ngra 4 haftalik modul asosida treninglar tashkil etildi. Treninglar quyidagi mavzularni qamrab oldi:

- baholashning pedagogik etikasi va baholovchi rolida o‘qituvchining pozitsiyasi;
- baholashda adolat va ob’yektivlik: real holatlar tahlili;
- motivatsiyalovchi fikr bildirish usullari;
- o‘zaro baholash, o‘zini baholash, rubrikalardan foydalanish ko‘nikmalari;
- raqamli platformalarda shaffof baholashni tashkil etish texnologiyalari.

Treninglar taqdimotlar, mini-ma’ruzalar, guruhli muhokamalar, rol o‘ynash, refleksiya va aks ettirish metodlarini uyg‘unlashtirgan holda tashkil etildi. Ushbu trening materiali ilgari hech qayerda chop etilmagan bo‘lib, muallif tomonidan ishlab chiqilgan va mavjud baholash metodikalarining integratsiyasi hamda modifikatsiyasiga asoslangan.

Tadqiqot davomida “Baholash madaniyati darajasi” so‘rovnomasi ishlab chiqildi va qo‘llanildi. So‘rovnoma 20 ta yopiq turdagi savoldan iborat bo‘lib, unda baholashda adolat, obyektivlik, motivatsiyalovchi yondashuvlar, mulohazali fikr bildirish, shaffoflik va individual yondashuv kabi komponentlar baholandi.

Tadqiqot yakunida eksperimental guruh talabalari baholashda adolat va motivatsiya omillarini amaliyotda qo‘llay olish darajasi bo‘yicha nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori natijalarni ko‘rsatdi. Bu esa tadqiqotda qo‘llanilgan metodologiyaning samaradorligini asoslaydi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING SHARHI

Manbalarni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda rivojlantiruvchi baholash [1], mezonli baholash [2], portfolioli baholash [3], o‘zaro va o‘zini baholash [4] kabi yondashuvlar ta’lim jarayonida samarali natijalar berayotganini tasdiqlamoqda. Shu bilan birga, turli mamlakatlarda o‘qituvchilarni baholashga tayyorlashga doir dasturlar (masalan, Danielson modeli – 2013; OECD TALIS hisobotlari – 2018) [4–10] baholash ko‘nikmalarining faqat texnik emas, balki axloqiy-me’yoriy (etika) va shaxslararo munosabatlar bilan chambarchas bog‘liqligini ta’kidlaydi.

O‘zbekiston kontekstida esa o‘qituvchilarni tayyorlash tizimida baholash uslublarini o‘rgatish bo‘yicha muayyan yutuqlarga erishilgan bo‘lsa-da, hali ham baholashga madaniyatli, adolatli va motivatsiyalovchi yondashuvlarni shakllantirishga yetarli e’tibor qaratilmayapti. Bo‘lajak o‘qituvchilar ko‘pincha baholashni faqat nazorat va reyting vositasi sifatida ko‘radilar. Natijada ular baholash jarayonida o‘quvchining shaxsiy rivojlanishini emas, balki faqat javob natijasini inobatga oladilar. Bu esa o‘quvchilarda bahoga qaratilgan o‘rganish holatining shakllanishiga hamda o‘quv faoliyatiga nisbatan ichki motivatsiyaning pasayishiga olib keladi.

Mavjud adabiyotlarni tahlil qilish natijasida aniqlanishicha, o‘qituvchi tayyorlov dasturlarida baholashning madaniy, psixologik va axloqiy asoslarini chuqur yoritishga, shuningdek, o‘quvchilarda o‘z-o‘zini baholashga yo‘naltirilgan yondashuvni shakllantirishga doir materiallar yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Ayniqsa, baholashning motivatsiyalovchi va shaxsga yo‘naltirilgan jihatlari bo‘yicha amaliy treninglar, reflektiv tahlillar, kuzatuv va kuzatuv asosida fikr yuritish strategiyalarining bo‘lajak o‘qituvchilar tayyorgarligiga samarali integratsiyasi ta’minlanmagan.

Bundan tashqari, pedagogik ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning baholashga bo‘lgan munosabatini ijobiy shakllantirishga qaratilgan baholash madaniyatini rivojlantirish mexanizmlari ilmiy-tadqiqotlar doirasida yetarli darajada o‘rganilmagan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bo‘lajak o‘qituvchilarda baholash madaniyatini shakllantirishni ta’minlash uchun pedagogik kvalimetriya fanining elementlaridan maqsadli, tizimli va metodik asosda foydalanish lozim. Ushbu jarayonni aniq ko‘rsatmalar asosida qanday tashkil etish mumkinligi quyida bayon qilinadi.

Avvalo, bo‘lajak o‘qituvchilar baholash madaniyatining tushunchaviy asoslarini pedagogik kvalimetriya bilan bog‘lay olishi muhim. Darsning kirish bosqichida talabalar bilan “Baholash madaniyati nima?”, “Baholash faqat ballmi?” kabi savollar asosida muhokama tashkil qilinib, pedagogik kvalimetriya fanida o‘rgatiladigan

tushunchalar (mezon, indikator, baholash vositasi, shkalalar) baholash madaniyatining tarkibiy qismlari sifatida tahlil qilinadi.

Masalan, "Ob'yektivlik = o'lchovning standartlashtirilganligi + mezonning aniqligi" formulasi asosida muhokama olib borish mumkin. Mezonli baholash orqali adolat va shaffoflikni o'rgatish maqsadida talabalarga "Rubrika tuzish" topshirig'i beriladi. Rubrika har bir indikator uchun aniq va kuzatiladigan tavsiflar (deskriptorlar) bilan to'ldiriladi. Keyin guruhlar o'rtasida almashiladi va "Bu rubrika adolatli baholash uchun yetarlimi?" degan savol asosida tahlil qilinadi.

O'zaro va o'zini baholash orqali reflektiv fikrlashni shakllantirish uchun talabalar juftlikda ishlaydi. Ular bir-birining og'zaki yoki yozma ishlarini o'zaro baholash rubrikasi asosida baholaydi. Har bir baholovchi so'ngra konstruktiv fikr bildiradi – ya'ni, ijobiy tomonlar va takliflarni yozadi. Har bir talaba o'z bahosi va fikrini "Mening fikrimga asos" sarlavhasi ostida yozma tarzda asoslaydi. Baholashdan so'ng quyidagi savollarga yozma javob beriladi:

- "Men nima uchun bu bahoni qo'ydim?"
- "Baholashda qaysi mezonni aniq qo'lladim?"
- "Mening bahom sherigimga qanday yordam berdi?"

Bo'lajak o'qituvchilarda fikr bildirish madaniyatini shakllantirish orqali motivatsiyalovchi yondashuvni rivojlantirish uchun "Xato ustida turing" metodikasidan foydalaniladi. Bu metodika o'quvchi xatolarini ko'rsatish bilan birga, ularni ruhan sindirmasdan rag'batlantirishga xizmat qiladi. Talabalarga quyidagi savollarga javob beruvchi konstruktiv fikr yozish topshirig'i beriladi:

- Qanday jihatlar yaxshi?
- Qayerda xato bo'lgan?
- Qanday yaxshilash mumkin?

Masalan:

✗ "Sen noto'g'ri bajargansan"

✓ "Agar bu qismni misol bilan asoslasang, fikring yanada kuchliroq bo'lardi"

Bo'lajak o'qituvchilar baholash natijalarini tahlil qilish va pedagogik xulosa chiqarishga ham o'rgatiladi. Buning uchun ularga o'quvchilarning baholash natijalari jamlangan kvalimetrik jadval taqdim etiladi. Ushbu jadval asosida talabalar quyidagi bosqichlarni amalga oshiradilar:

*Tahlil:* qaysi indikatorlar past baholangan?
*Xulosa:* bu holatning sabablari nima?
*Qaror:* qanday yo'nalishda yordam ko'rsatiladi?
Jadvalda quyidagi komponentlar ko'rsatiladi:

| O'quvchi | Ish sifati | Tushunarlilik | Asoslilik | Umumiy ball | Rivojlanish yo'nalishi |
|---|---|---|---|---|---|

Kvalimetrik bilimlarni faqat nazariy emas, balki amaliy mashg'ulotlar orqali o'rgatish, turli mashq va topshiriqlar yordamida baholovchi rolini sinab ko'rish talabalarga adolat va ob'yektivlik mezonlarini chuqur o'zlashtirish imkonini beradi. Bunda rubrikalar (baholash mezonlarini aniq ifodalovchi maxsus jadvallar), case-study holatlari va o'zaro baholash varaqalari adolatli, shaffof va izchil baholashni ta'minlaydi (1-jadvalga qarang).

1-jadval: **Bo'lajak o'qituvchilar baholash madaniyatini shakllantirish, adolatli, obyektiv va motivatsiyalovchi baholashga tayyorlashga oid rubrikalar, case-study va o'zaro baholash varaqalari**

| O'quvchi yozma ishini baholash uchun rubrika | | | |
|---|---|---|---|
| **Ko'nikma** | **3 – Yaxshi darajada** | **2 – O'rtacha darajada** | **1 – Yetarli emas** |
| Mavzuni tushunish | Asosli, aniq va tushunarli bayon qilingan | Qisman tushunarli, ayrim joylarda aniqlik yetishmaydi | Noaniq, mavzu bo'yicha kam ma'lumot |
| Fikrning izchilligi | G'oya to'g'ri va tartibda bayon qilingan | Ba'zida fikrda uzilish bor | Fikrlar tartibsiz |
| Asoslash | Misol va dalillar bilan mustahkamlangan | Ba'zi misollar bor, ammo dalillar yetarli emas | Asossiz, subyektiv mulohaza |
| Til va uslub | Imlo, uslubga to'liq rioya qilingan | Kamchiliklar bor, lekin fikrga xalal bermaydi | Imlo va uslub xatolari ko'p |
| Umumiy baho | 12–15 ball: a'lo; 8–11: yaxshi; 4–7: qoniqarli; 0–3: past | | |

| O'quvchining fikr bildirish sifati uchun rubrika | | | |
|---|---|---|---|
| **Mezoni** | **3 – Yuqori** | **2 – O'rtacha** | **1 – Past** |
| Aniq va konstruktiv | Ijobiy va tanqidiy nuqtalarni muvozanatda ifoda etgan | Ko'proq tanqidiy, ijobiy tomonlar kam | Noaniq, faqat tanqid yoki umumiy fikr |
| Tavsiya mavjudligi | O'quvchi nima qilishi kerakligini aniq ko'rsatgan | Umumiy taklif bergan | Tavsiya yo'q |
| Til ohangi | Rag'batlantiruvchi, shaxsga yo'naltirilgan | Neytral, xolis | Ruhan tushkunlikka olib kelishi mumkin |
| Umumiy sifat | Foydali, motivatsiyalovchi | O'rtacha, foydasi cheklangan | Yordam bermaydi, noaniq |

Case-study holatlari (baholovchi sifatida qaror qabul qilish uchun)

**1-Case:** "O'quvchi fikri noto'g'ri, lekin ijodiy yondashgan". Siz boshlang'ich sinf o'qituvchisiz. O'quvchi matn asosida savollarga javob berayotganida faktik xatoga yo'l qo'ygan, ammo bu xatoda ijodiy mulohaza va o'z fikrini asoslashga intilgan. Baholashda sizga ikkita yo'l bor: xato uchun ball bermaslik yoki ijodiy yondashuvni e'tiborga olib, rag'batlantirish.

*Savollar:*

- Siz qanday baholash usulini tanlaysiz?
- Qanday mezonga asoslanasiz?
- O'quvchiga qanday konstruktiv feedback berasiz?

**2-Case:** "O'quvchilarni o'zaro baholash natijasida kelib chiqqan ziddiyat". 4-sinf darsida o'quvchilarga o'zaro baholash topshirig'i berildi. Biroq, bir o'quvchi sherigiga past baho qo'yganligi bois oralarida nizoli holat vujudga keldi. Baholangan o'quvchi bu bahoni nohaq deb hisoblamoqda.

*Savollar:*

- Siz o'qituvchi sifatida bu holatni qanday boshqarasiz?
- O'zaro baholashda qanday mezonlar va qoidalar muhim?
- Bu bahoni adolatli qilish uchun qanday vositalar yordamida muammoni hal qilasiz?

**3-Case:** "Baholashda o'quvchining shaxsiy muammolari ta'sir qilmoqda". Bir o'quvchingiz darslarda faol, lekin so'nggi paytda topshiriqlarni o'z vaqtida bajarmayapti. Siz baholashda doimiylik va ob'ektivlik talablariga sodiq qolishingiz kerak. Biroq, bu o'quvchining oilaviy muammolari borligini bilib qoldingiz.

*Savollar:*

- Siz baholashda qanday yo'l tutasiz?
- Ob'ektivlik va shaxsiy yondashuv o'rtasidagi muvozanatni qanday ta'minlaysiz?
- Feedback yoki telegram orqali qanday yordam berasiz?

O'zaro baholash varaqasi

O'quvchi ishini baholash varaqasi

O'qituvchi yoki talaba tomonidan birgalikda ishlatiladi

Baholanayotgan ish turi: ______________________

Baholovchi: __________________________________

Baholanayotgan ishtirokchi: ___________________

Baholangan sana: ____________________________

| Ko'nikma / Aspekt | Ball (1–3) | Izoh (aniqlashtiring) |
|---|---|---|
| Tushuncha aniqligi | □ 1 □ 2 □ 3 | |
| Mavzuga moslik | □ 1 □ 2 □ 3 | |
| Fikrlarning asoslanganligi | □ 1 □ 2 □ 3 | |
| Ijodiy yondashuv | □ 1 □ 2 □ 3 | |
| Til va uslub | □ 1 □ 2 □ 3 | |
| Umumiy taassurot | □ 1 □ 2 □ 3 | |

*Konstruktiv fikr mulohazalar yozing* (kamida 2 jumla):

- Ijobiy jihatlar:

...........................................................................................................................................

...........................................................................................................................................

- Yaxshilash bo‘yicha tavsiyalar:

...........................................................................................................................................

...........................................................................................................................................

✓ Men nega bu bahoni qo‘ydim? (reflektiv yozuv):

...........................................................................................................................................

...........................................................................................................................................

...........................................................................................................................................

*Qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar:*

- Talabalar har bir baholovchi varaqasini dars yakunida to‘ldiradi.
- O‘qituvchi ushbu varaqalarni to‘plab, umumiy xulosa chiqaradi.
- Feedback sifatini baholash uchun maxsus rubrikani ham qo‘llash mumkin (yuqorida berilgan).

Yuqoridagi didaktik ishlanmalar motivatsiyalovchi yondashuvga urg‘u berishi orqali talaba ongida “aybdor topish” emas, “yordam ko‘rsatish” vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘rganilgan nazariy manbalar, eksperimental tadqiqotlar, metodik ishlanmalar hamda amaliy faoliyatlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, baholash faqat natijani belgilash vositasi emas, balki o‘quvchini rag‘batlantirish, uning rivojlanish yo‘nalishini belgilash va o‘qituvchi hamda o‘quvchi o‘rtasida ishonchli kommunikatsiyani shakllantiruvchi muhim pedagogik mexanizm hisoblanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda baholash madaniyatini shakllantirish, ularni adolatli, ob’yektiv va motivatsiyalovchi baholashga tayyorlash – zamonaviy ta’limning ustuvor vazifalaridan biridir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, pedagogik kvalimetriya elementlarini innovatsion metodlar (rubrikalar, konstruktiv fikr bildirish, o‘zaro baholash, case-study) bilan uyg‘unlashtirish talabalarda baholashga nisbatan mas’uliyatli, ijobiy va ongli munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, shaxsga yo‘naltirilgan baholash mezonlaridan foydalanish, reflektiv fikr yuritishga va samarali fikr bildirishga o‘rgatish o‘qituvchilik kasbining madaniy-pedagogik mezonlarini mustahkamlashga olib keladi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- Pedagogik kvalimetriya fanining mazmunini qayta ko‘rib chiqish, unga baholash madaniyati, shaxsga yo‘naltirilgan mezonli baholash, konstruktiv fikr bildirish kabi bo‘limlarni kiritish;
- Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida rubrika tuzish, feedback yozish va o‘zaro baholash usullarini o‘rgatishga alohida amaliy mashg‘ulotlar ajratish;
- Pedagogik amaliyotda ishtirok etayotgan talabalar uchun baholash monitoringini olib borishga mo‘ljallangan kuzatuv varaqalarini ishlab chiqish va ular asosida baholovchi sifatidagi faoliyatni tahlil qilish;
- Reflektiv baholash kompetensiyasini shakllantirish maqsadida talabalarni o‘z bahosini asoslash, tanqidiy fikr bildirish va aks ettirish yozuvlarini yozishga yo‘naltiruvchi topshiriqlarni tizimli joriy etish;
- Har bir pedagogik oliy ta’lim muassasasida baholashga oid metodik seminarlar va treninglarni tashkil etish, ular orqali talabalarga baholashning axloqiy, motivatsiyaviy va kommunikativ jihatlarini o‘rgatish;
- O‘qituvchi tayyorlov dasturlariga baholashning shaffofligini ta’minlash, unga bo‘lgan ishonchni oshirishga qaratilgan amaliy o‘quv modullarini joriy etish.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**
1. Black, P., & Wiliam, D. (1998). Assessment and classroom learning. Assessment in Education: Principles, Policy & Practice, 5(1), 7–74.
2. Sadler, D. R. (2005). Interpretations of criteria-based assessment and grading in higher education. Assessment & Evaluation in Higher Education, 30(2), 175–194.
3. Paulson, F. L., & Meyer, C. A. (1991). What makes a portfolio a portfolio? Educational Leadership, 48(5), 60–63.
4. Panadero, E., Andrade, H., & Brookhart, S. (2013). Fusing self-regulated learning and formative assessment: A roadmap of where we are, how we got here, and where we are going. The Australian Educational Researcher, 40(4), 593–612.
5. Xolbekov, N. X., & Rajabov, A. R. (2019). Ta'limda baholashning zamonaviy texnologiyalari. Toshkent: TDPU nashriyoti.
6. G'ulomov, S. S., & Sattorova, Z. M. (2020). Baholash madaniyatining didaktik asoslari. O'zbek pedagogik jurnali, №2, 46–52.
7. Normurodova, M. Sh. (2022). Talabalarni adolatli baholash tamoyillarini shakllantirishda pedagogik yondashuvlar. Ilm-fan va ta'lim rivoji, №4, 77–80.
8. Hasanov, S. S. (2018). Pedagogik kvalimetriya: baholash tizimlari va o'lchovlar. Toshkent: Fan va texnologiya.
9. Ergashova, D. T. (2021). Baholashning shaffofligi va talaba motivatsiyasiga ta'siri. Yosh olimlar jurnali, №7, 92–95.
10. Azimov, M. B. (2023). Bo'lajak o'qituvchilarda reflektiv kompetensiyalarni rivojlantirish: baholash vositalari orqali. Pedagogika va psixologiya muammolari, №1, 114–119.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha) |
| 13.00.07 | Ta'limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov
**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2025. №7**

© Materiallar koʻchirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.